DOI

Avalbayev O.N.
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent
To‘xsanov S.A.
Jizzax davlat pedagogika universiteti, 1-bosqich magistranti
Xushnazarova N.D.
Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2-bosqich talabasi

DORIVOR O‘SIMLIKLAR ETIMOLOGIYASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayrim dorivor o‘simliklarning etimologiyasi haqida ma’lumot berilgan.*
Kalit so‘zlar: *dorivor, tibbiyot, flora, tog‘ mintaqasi, farmakognoziya.*

Avalbayev O.N.
Jizzakh State Pedagogical University, associate professor
Tukhsanov S.A.
Jizzakh State Pedagogical University, Master of the 1st stage
Khushnazarova N.D.
Jizzakh State Pedagogical University, student of Stage 2

ETYMOLOGY OF MEDICINAL PLANTS

Abstract: *This article provides information on the etymology of some medicinal plants.*
Key words: *medicine, flora, mountain region, pharmacognosy.*

O‘tgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan Markaziy Osiyoda o‘sadigan 4000 dan ortiq o‘simlik tarkibida alkaloid saqlashi aniqlandi. Bundan tashqari 50 dan ortiq o‘simlik glikozidlari, 160 o‘simlik uglevodlari, 250 o‘simlik lipidlari, 150 moddalardan ortiq turning kumarin va flavonoidlari va ular asosida qator dorivor vositalar yaratildi va amaliy tibbiyotga tadbiq qilindi.

Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekistonda qadimda, o‘simliklardan shifobaxsh xususiyatiga ega bo‘lgan turlar qanchaligi, ularni nomi qanday ma’noni anglatishi ko‘pchilikni qiziqtirib kelgan.

Eramizdan avval o‘simliklar nomi yunon va lotin tillarida Aristotel (Arastu), Teofrast, Gippokrat (Buqrot), Galen (Jolinus), Dioskorid (Diskurudis), Pliniy kabi olim va tabiatshunoslar asarlarida yozib qoldirilgan.

Keyinchalik, O‘rta asr Sharq tabobatiga oid asarlar yuzaga kelishi bilan o‘simliklar nomi ham xakim va tabiblar asarlarida qayd etilgan. Lekin u vaqtlarda

https://wordlyknowledge.uz

o‘simliklar nomi hozirgiday sistematik tizimga (oila, turkum, tur) solinmagan. O‘simliklar haqida dastlab Miletlik Gekateyning Xorazm haqidagi ma’lumotida “Xorasmiya tog‘larida, o‘rmonlarida tikonlik kinara ... tol va yulgun o‘sganligi qayd etilgan (Sulaymonova, 1991). Keyinchalik zardo‘shtiylarning “Avesto” nomli kitobida, muborak “Xadis” lar hamda Abu Bakr Roziy, Abu Ali ibn Sino, Al-Beruniy, Yusufiy kabi allomalar va boshqa hakimlar kitoblarida o‘simliklar nomi o‘sha davr taomili bo‘yicha arab va fors tillari bilan birga mahalliy tillarda ham zikr qilingan. Bu borada shoir Boburning “Boburnoma” nomli kitobida keltirilgan o‘simliklar nomi ham diqqatga sazovordir.

Quyidagi ma’lumotda hozirda faqat ilmiy tibbiyot va xalq tabobatida qo‘llanilib kelinayotgan dorivor o‘simliklar nomi keltirilgan.

Hozirgacha o‘simliklar nomi Karl Linney (1701-1778 y.) zamonlaridan beri qabul qilingan qoidaga asosan lotin tilida qo‘sh (binar) nom bilan atalib kelinmoqda. Shunday ekan, o‘simliklarni lotin tilidagi nomini aniq - etimologik ma’nosi (yunon tilida “etimologiya”, “etimen” - chin, haqiqat, “logos” - ta’limot) ni sharhlovchi qo‘llanma zarurati kelib chiqadi.

Zamonaviy botanika va dorishunoslikka (farmakognoziya) oid adabiyotlar, darsliklar va qo’llanmalarda ham o‘simliklarni lotin va mahalliy tillardagi nomlari berilgan. Aksariyat hollarda o‘simliklarning lotincha nomlari ham asosan yunon (grek) tilidagi, ba’zan arab, sanskrit, kelt kabi xalqlar tillaridagi atamalar bilan bog’liq.

Ba’zi o‘simliklarning turkum va turlari nomiga ahamiyat berilsa, ushbu nomlarda o‘simlik a’zolari - barglari, gullari, mevalarining shakli-shamoili, hatto dorivorlik xususiyati ham inobatga olingan. O‘simliklarni qanday ekologik sharoitda o‘sishi, xususan, cho‘l (ammos), tog‘ (montiz), daryo (rivale), o‘rmon (sylvestris), botqoq (palustris) kabi nomlardan tashqari olimlar-botanik va shifokorlar nomi bilan atalgan o‘simliklar (Ungernia, Bergenia, Magnolia, Sternbergia, Raufolfia, Avicennia, Berunilla), geografik nomlar (pamiro-alaica, turkistanica, asiatica, talassica, zeravchanica, ferganica, karatavica songorica) bilan atalgan.

Aconitum zarawschanicim - Oq parpi - Ayiqtovondoshlar.

O‘zbekistan florasida parpining uch turi ma’lum.

Feofrast va Nikandr ma'lumogicha tak koyada usuvchi zaharli o’simlik yunon tilida “acaniton” deb atalgan. Tur nomi “zarawschanicim” - o’simlik o’sgan geografik joy nomi.

Tarqalishi. O’zbekistonda Zarafshon, Hisor va Turkiston tog’larining o’rta va yuqori mintaqalarida asosan archazorlarda o’sadi.

Kimyoviy tarkibi. Ildizi va yer ustki qismida diterpen alkaloidlar (geteratizin, zarafshanidin va b.), kraxmal, organik kielotalar mavjud.

Ishlatilishi. O’zR FA akademik S.Yu. Yunusov nomli O’simlik moddalari kimyosi institutida (O’MKI) oq parpidan ajratib olingan geteratizin alkaloidi asosida preparat yaratilib, antiaritmik vosita sifatida amaliy tibbiyotga tavsiya etilgan.

https://wordlyknowledge.uz



Aconitum zarawschanicim

Agropiron repens (L.) DC. - Kakra, O‘rmalovchi kakra – Qoqio‘tdoshlar (Murakkabguldoshlar).

Respublika florasi uchun ham shu tur keltirilgan.

Turkum nomi yunon tilida “agron” - uch, tag, “ptilon” - qanot. O’tkir o’simtali o’ramabarg nomi bilan bog’liq. Tur nomi yoyilib o’sgan ma’noda.

Tarqalishi. Respublikada barcha viloyatlarda dalalarda ekinlar orasida, tog’larning o’rta mintadalarida begona o’t sifatida o’sadi.

Kimyoviy tarkibi. Tarkibida seskviterpenoidlar (repin, akroptilin) bor.

Ishlatilishi. Yer ustki qismining qaynatmasi bezgak va tutqanoq (epilepsiya) kasalliklarini davolashda, suv va spirtdagi ekstrakta qichimani davolashda hamda gijja haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

https://wordlyknowledge.uz



***Agropiron repens* (L.) DC.**

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Аль-Беруни, Абу Райхен Мухаммед ибн-Ахмед. Избраннқе произведения. 1973. Ташкент. Фан. Т.4. 1120 с
2. Алёхин В.В. Методика полевого изучения растительности и флоры М. Изд. 2-е. 1938. 295 с.
3. Афанасьев К.С. Растительность Туркестанского хребта (в пределах Таджикистана и Киргизистана) М-Л. 1956. с 129-140.
4. Ахмедходжаева Х.С., Курмуков А.Г. Об эстрогенных свойствах веществ выделенных из ферулы. Гормоны и гормональние препараты в животноводстве. М. 1974 с. 32-33.
5. Ашрафова Р.А., Ахмедходжаева Х. С. Гистоморфологические изменения внутренних органов белых крыс под влиянием эстроферола. Фармакалогия растительных вещест. Ташкент. Фан. 1976.164 с.
6. Гаммерман А. Ф. Обзор лекарственных растений Туркмении. Тр. Туркм. филиала. 1942. Вып 2. с.76.
7. Глухов М. М. Медоносные растения. М. 1952. 246 с.
8. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. Qomuslar bosh tahririyati, - Toshkent. 1997. 42-43 bet.
9. Определитель растений Средней Азии. -Ташкент. Фан. 1983. Т.7 с 177-322.
10. Флора Узбекистана. В 6-и т. – Ташкент: АН УзССР, 1941-1962.

https://wordlyknowledge.uz